XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 7 - mart VI-48-31-4-58-K/22 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanida yangi tashkil etilgan aholi punktining tarkibiy qismiga nom berish to‘g‘risida

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 20-sentabrdagi 7-son yig‘ilish bayoni, Qamashi tuman hokimining viloyat komissiyasiga aholi punktining tarkibiy qismiga nom berish to‘g‘risidagi taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 30-noyabrdagi 01-14-881-son ekspert xulosasi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qamashi tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Ro‘ziyevaning Qamashi tumanida Geografik obyektlarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi maqullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining (2021-yil 30-noyabrdagi 01-14-881-sonli) ekspert xulosasiga asosan Qamashi tumani hokimining aholi punktining tarkibiy qismi bo‘lgan mavzega **Yangi O‘zbekiston** nomi berilsin.

3. Qamashi tumani hokimining o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Bekmurzayev)ga bir hafta muddatda tuman hududidagi O‘zbekiston mahallasi hududida yangi tashkil etilgan mavzega berilgan Yangi O‘zbekiston nomini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish, aholi o‘rtasida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Meyliyev) nom berilgan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatni inobatga olinishini taminlasin.

5. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari B.Haydarov, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Omonova) zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.Tog‘ayev**